Ilmiy tadqiqotlar va ularning yechimlari jurnali
Aoka guvohnoma № 323759 ISSN: 3060-4818

ABU NASR AL - FAROBIY TA'LIMOTIDA AXLOQ VA FAZILAT

Samatov Xurshid Ulmasjonovich
(PhD), dotsent
Qurbanova Aziza Qobil qizi
Samarqand davlat pedagogika instituti
Pedagogika fakulteti, Pedagogika yo'nalishi
2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24072250

Annotatsiya. Mazkur maqolada Sharq falsafasining yirik namoyandasi Abu Nasr al-Forobiyning axloqiy-falsafiy qarashlari, fazilat tushunchasining mohiyati, inson kamoloti va baxt-saodatga erishish masalalari tahlil qilinadi. Mutafakkirning "Fozil odamlar shahri" asaridagi inson, jamiyat, axloqiy fazilat, hamkorlik va ezgu maqsadlar haqidagi qarashlariga alohida e'tibor qaratiladi. Shuningdek, Forobiy ta'limotining zamonaviy ta'lim-tarbiya, yoshlarning ma'naviy kamoloti va ijtimoiy mas'uliyatini shakllantirishdagi ahamiyati ochib beriladi.
Kalit so'zlar: Abu Nasr al-Forobiy, axloq, fazilat, baxt-saodat, ezgulik, adolat, inson kamoloti, fozil jamiyat, ma'naviy tarbiya.

Аннотация. В статье анализируются этико-философские взгляды Абу Насра аль-Фараби, сущность понятия добродетели, вопросы человеческого совершенствования и достижения счастья. Особое внимание уделяется взглядам мыслителя на человека, общество, нравственные качества, сотрудничество и благие цели, изложенным в произведении «Трактат о взглядах жителей добродетельного города». Раскрывается значение философского наследия аль-Фараби для современного образования, духовного развития молодёжи и формирования социальной ответственности.
Ключевые слова: Абу Наср аль-Фараби, этика, добродетель, счастье, добро, справедливость, совершенствование человека, добродетельное общество, нравственное воспитание.

Abstract. This article examines the ethical and philosophical views of Abu Nasr al-Farabi, the meaning of virtue, human perfection, and the pursuit of happiness. Particular attention is paid to his views on human beings, society, moral qualities, cooperation, and noble goals as presented in The Virtuous City. The article also discusses the relevance of al-Farabi's philosophical legacy to contemporary education, the moral development of young people, and the cultivation of social responsibility.
Keywords: Abu Nasr al-Farabi, ethics, virtue, happiness, goodness, justice, human perfection, virtuous society, moral education.

Kirish

Jahon falsafasi tarixida insonning axloqiy kamoloti, fazilatlari va jamiyat hayotidagi o'rnini chuqur tahlil qilgan mutafakkirlar orasida Abu Nasr al-Forobiy alohida o'rin egallaydi. Uning falsafiy merosida inson, aql, bilim, axloq, baxt-saodat va jamiyat masalalari o'zaro bog'liq holda o'rganilgan. Forobiy

nafaqat falsafa va mantiq, balki siyosiy tafakkur, musiqa nazariyasi va ilmiy bilimlarning tasnifi bilan ham shug‘ullangan. Shu sababli u Sharq falsafiy tafakkurining rivojiga katta hissa qo‘shgan qomusiy olim sifatida e’tirof etiladi.

Forobiy ta’limotining muhim jihati shundaki, u insonning baxtli hayot kechirishi va jamiyatning farovon bo‘lishini axloqiy kamolot bilan bog‘laydi. Mutafakkir nazarida insonning mukammallikka erishishi faqat moddiy ehtiyojlarning qondirilishi yoki tashqi muvaffaqiyatlar bilan belgilanmaydi. Buning uchun bilim, aql, to‘g‘ri xulq, ezgu maqsad va ijtimoiy hamkorlik ham zarur. Shu sababli uning axloqiy qarashlarini o‘rganish bugungi kunda ham ma’naviy tarbiya, pedagogik faoliyat va ijtimoiy mas’uliyat masalalarini anglashda muhim ahamiyatga ega.

Asosiy qism

Forobiy taxminan 870-yilda Forob hududida tug‘ilgan va 950-yilda Damashqda vafot etgan. U Aristotel merosini o‘rganish va sharhlashdagi o‘rni sababli “Ikkinchi muallim” nomi bilan mashhur bo‘lgan. Uning axloqiy va ijtimoiy qarashlari, ayniqsa, “Fozil odamlar shahri” asarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Abu Nasr al-Forobiyning axloqiy-falsafiy ta’limotida inson kamoloti, axloqiy fazilatlar, bilim, baxt-saodat va jamiyat taraqqiyoti o‘zaro uzviy bog‘liq tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Mutafakkir insonning yetuklikka erishishini faqat individual intilish bilan izohlamaydi, balki uning ijtimoiy muhit, ta’lim-tarbiya va boshqa insonlar bilan munosabatlariga ham alohida ahamiyat beradi. Uning “Fozil odamlar shahri” asarida jamiyatning kelib chiqishi va insonlar o‘rtasidagi hamkorlik zarurati haqida bildirilgan fikrlar ushbu qarashning muhim dalilidir. Forobiy yozadi:

“Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko‘p narsalarga muhtoj bo‘ladi, u bir o‘zi bunday narsalarni qo‘lga kirita olmaydi, ularga ega bo‘lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug‘iladi...” [1, 320-b.].

Ushbu iqtibos insonning kamolotga erishishida ijtimoiy hamkorlik muhim o‘rin tutishini ko‘rsatadi. Inson o‘z bilim va qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida ustozlar, oila, jamiyat va boshqa kishilarning tajribasidan foydalanadi. Demak, Forobiy qarashlarida insonning axloqiy yetukligi uning boshqalar bilan munosabatlaridan ajralgan holda emas, balki jamiyat hayotidagi faol ishtiroki bilan bog‘liq holda shakllanadi.

Forobiy ta’limotida fazilat tushunchasi insonning ijobiy xulq-atvori, bilimga intilishi va o‘z faoliyatini oqilona tashkil etishi bilan bog‘liq. Fazilatli inson yaxshilikni anglash bilan cheklanmay, uni amaliy faoliyatida ham namoyon etishga intiladi. Bu jihatdan mutafakkirga nisbat berilgan quyidagi fikr e’tiborga loyiq:

“Har bir kishi kasb-korni mukammal bilmog‘i, yaxshi tarbiya olmog‘i va yaxshi xulq-odob, fazilatlarga ega bo‘lmog‘i kerak” [2, 4-b.].

Mazkur jumla Hamidjon Xomidiy va Mahmud Hasaniy tuzgan Mashriqzamin hikmat bo‘stoni to‘plamida Forobiyga nisbat berilgan. Unda kasbiy bilim, tarbiya va axloqiy sifatlar o‘rtasidagi bog‘liqlik ifodalangan. Ushbu fikrni zamonaviy ta’lim nuqtayi nazaridan tahlil qilganda, mutaxassisning yetukligi faqat kasbiy mahorat bilan emas, balki uning halolligi, mas’uliyati va jamiyat oldidagi burchini anglash darajasi bilan ham belgilanishini ko‘rish mumkin.

Mutafakkirning axloqiy qarashlarida ilm olish jarayoni ham muhim o‘rin egallaydi. Bilim insonning tafakkurini rivojlantiradi, borliqni anglash imkoniyatlarini kengaytiradi va voqea-hodisalarga ongli

munosabatda bo‘lishiga yordam beradi. Biroq ilm olish muayyan axloqiy talablar bilan uyg‘unlashishi lozim. Shu ma’noda Forobiyga nisbat berilgan yana bir fikrda quyidagicha deyiladi:

“Har kimki ilm-hikmatni o‘rganaman desa, uni yoshligidan boshlasin, salomatligi yaxshi bo‘lsin, yaxshi axloq va odobli bo‘lsin, so‘zining ustidan chiqsin, yomon ishlardan saqlanadigan bo‘lsin, xiyonat, makr-hiyladan uzoq bo‘lsin” [3, 5-b.].

Ushbu fikrda bilim olish bilan shaxsning axloqiy mas’uliyati o‘rtasidagi munosabat yoritilgan. Ilm insonning imkoniyatlarini kengaytirishi bilan birga, uni halol va mas’uliyatli faoliyatga yo‘naltirishi ham zarur. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida bilim berish bilan bir qatorda, o‘quvchi va talabalarda mustaqil fikrlash, rostgo‘ylik, va’daga vafo qilish va o‘z xatti-harakatlari uchun javobgarlikni his etish kabi sifatlarni rivojlantirish muhim hisoblanadi.

Forobiy falsafasida baxt-saodat inson hayotining muhim maqsadi sifatida talqin qilinadi. Bunda baxt-saodatni faqat moddiy farovonlik, mavqe yoki tashqi muvaffaqiyatlar bilan cheklab bo‘lmaydi. Insonning aqliy va ma’naviy kamoloti, bilimlarni egallashi hamda ezgu faoliyat yuritishi ham ushbu maqsadga erishishda ahamiyat kasb etadi. Mashriqzamin hikmat bo‘stoni to‘plamida Forobiy nisbat bergan quyidagi jumla keltiriladi:

“Inson yuksak kamolotga erishuv yo‘lida harakat qilganidek, aqliy bilishga ham harakat qilsa, hech shubhasiz o‘zi intilayotgan so‘nggi darajadagi baxt-saodatga erishadi” [4, 63-b.].

Mazkur fikr insonning aqliy rivojlanishi va baxt-saodatga intilishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ifodalaydi. Shaxsning kamoloti bilimlarni to‘plash bilangina belgilanmaydi; u egallagan bilimlarini hayotda to‘g‘ri qo‘llashi, oqilona qarorlar qabul qilishi va jamiyatga foyda keltirishi bilan ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli Forobiy merosini o‘rganish yoshlarning hayotiy maqsadlarini belgilashida, bilimga mas’uliyat bilan yondashishida va ma’naviy qadriyatlarni anglashida nazariy ahamiyatga ega.

Forobiy ta’limotining muhim jihatlaridan yana biri ta’lim va tarbiyaning o‘zaro munosabatidir. Ta’lim insonning bilim va tushunchalarini rivojlantirsa, tarbiya uning xulq-atvori, odatlari va boshqa kishilar bilan munosabatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ushbu masala bo‘yicha Forobiy nisbat bergan quyidagi fikr keltiriladi:

“Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish, tajriba bilan bo‘ladi” [5, 3-b.].

Bu jumla ta’lim-tarbiya jarayonida nazariy bilim va amaliy faoliyatning ahamiyatini ko‘rsatadi. Inson odob, halollik va mas’uliyat haqida bilim olishi mumkin, biroq mazkur fazilatlar uning kundalik xatti-harakatlarida namoyon bo‘lgandagina barqaror xulqiy sifatga aylanadi. Shu nuqtayi nazardan, ta’lim muassasalarida nazariy mashg‘ulotlar bilan birga amaliy topshiriqlar, jamoaviy faoliyat, o‘zaro yordam va ijtimoiy mas’uliyatni rivojlantiruvchi usullardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Forobiy qarashlarining umumiy mazmuni shundan iboratki, insonning axloqiy kamoloti uning bilim olishi, o‘z xulqini takomillashtirishi va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi bilan bog‘liq. Mutafakkirning fozil jamiyat haqidagi qarashlarida insonlar o‘rtasidagi hamkorlik, ezgu maqsadlar va umumiy manfaatlarga intilish muhim o‘rin egallaydi. Bu g‘oyalar zamonaviy sharoitda ham dolzarb bo‘lib, yosh avlodni ma’naviy yetuk, bilimli, halol va mas’uliyatli shaxs sifatida tarbiyalashda nazariy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

Xulosa

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, Forobiy merosi ta’lim-tarbiya jarayonida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Bilimni axloqiy mas’uliyat bilan uyg‘unlashtirish, yoshlarda halollik, adolat, mustaqil fikrlash va hamkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish mutafakkir qarashlarining bugungi kun uchun muhim jihatlaridir. Umuman olganda, Abu Nasr al-Forobiy ta’limotida axloq va fazilat insonning o‘zini takomillashtirishi, haqiqiy baxt-saodatga intilishi hamda jamiyat farovonligiga hissa qo‘shishi bilan belgilanadi. Uning falsafiy merosini ilmiy asosda o‘rganish va ta’lim amaliyotida mazmunan qo‘llash ma’naviy yetuk, mas’uliyatli va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan manbalar

1. Forobiy, Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. — Toshkent: “Abdulla Qodiriy” nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. — 320-bet.
2. Xomidiy, Hamidjon; Hasaniy, Mahmud. Mashriqzamin hikmat bo‘stoni. — Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1997. — 251 bet.
3. Abu Nasr Forobiy. Aql-ma’naviyat va saodat haqida risolalar. — Toshkent: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2015.
4. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri: nodir va dono fikrlar. — Toshkent: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2004. — 160 b.
5. Otajonov, J. T.; Qirg‘izov, I. Abu Nasr Forobiyning ilmiy merosi “Fozil odamlar shahri” asari misolida. — Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy-amaliy jurnali, 2025.